



**NAVOIY VILOYATIDAGI  
KORXONA VA TASHKILOTLAR  
DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT**  
*2020- yil 1- iyun holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*

## Viloyatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*


*Barcha shahar va tumanlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*

*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi Navoiy viloyati boshqarmasi ma'lumotlar bazasi asosida 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Navoiy viloyatida qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vog'ar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.



## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)

8 581



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

3 450



Oilaviy korxonona

71



Unitar korxonona

5 139



Xususiy korxonona

22




Aksiyadorlik jamiyati

147




Boshqalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat  
birlik



xususiy korxonona  
birlik




### Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- iyun holatiga ko'ra)



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonolari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



### Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi.


Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini bata-mom to'lamagan aksiyadorlar aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-may oylarida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-may oylarida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar-may oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020- yil yanvar-may oylarida 2 153 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 139 ta, xususiy korxonalar – 448 ta, oilaviy korxonalar – 487 ta, muassasalar – 29 ta va boshqalar – 50 tani tashkil etdi.

# Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




## Xususiy korxonalar






## Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **32,6 %** ga oshdi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari




**32,9 %** ga oshdi



### Mikrofimlar




### Kichik korxonalar




### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



**26,2 %** ga oshdi



### Oilaviy korxonalar




**87,0 %** ga oshdi




### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **60,9 %** ga oshdi



### Xususiy korxonalar



**14,1 %** ga oshdi




## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **34,6 %** ga oshdi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**34,0 %** ga oshdi



### Mikrofirmalar




### Kichik korxonalar



### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**44,3%** ga oshdi



### Oilaviy korxonalar




**3,3** martaga oshdi




### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **28,6 %** ga oshdi



### Xususiy korxonalar



**11,2 %** ga oshdi




## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **99,8 %** ga oshdi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**2,0** martaga oshdi



### Mikrofirmalar




### Kichik korxonalar



### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**71,2 %** ga oshdi



### Oilaviy korxonalar




**3,7** martaga oshdi



### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **56,3 %** ga oshdi



### Xususiy korxonalar



2019- y.

1 069

2020- y.


1 926

**80,2** foizga oshdi







## Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




### Mikrofimlar




### Kichik korxonalar




### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



### Oilaviy korxonalar



### Xususiy korxonalar





## Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 249 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 118,5 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 116,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,2 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 149,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,8 %) o'sishidir.

## Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 174 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,4 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 116,7 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 4,0 %);

axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 142,9 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 17,2 %);


noshirlik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 119,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 14,4 %);

dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 200,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,1 %);

kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 115,6 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 29,9 %);

aloqa xizmatlarning – 89,2 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 33,4 %) o'sishidir.


## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra 232 tani tashkil etib, ulardan 226 tasi yoki 97,4 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 72 taga yoki 46,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-may oylarida viloyatimizda 21 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-may oylarida, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)





## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	57	57	69	154	226
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4	6	9	25	28
Sanoat	40	38	46	87	140
Qurilish	-	1	1	7	9
Savdo	5	4	5	16	25
Tashish va saqlash	3	3	3	2	3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-	1	4	3
Axborot va aloqa	-	-	-	-	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	1	2
Boshqa turlar	5	5	4	12	15

## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	2 948	3 326	4 092	5 841	8 264
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	353	488	634	827	1 150
Sanoat	583	684	840	1 126	1 421
Qurilish	413	454	525	727	1 049
Savdo	736	805	947	1 543	2 641
Tashish va saqlash	229	269	339	442	494
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	120	149	201	298	387
Axborot va aloqa	46	42	53	61	72
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	28	43	53	66	94
Boshqa turlar	440	392	500	751	956

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>424</b>	<b>602</b>	<b>1 553</b>	<b>3 338</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	100	145	290	387
Sanoat	92	127	399	746
Qurilish	7	7	16	52
Savdo	83	116	389	1 447
Tashish va saqlash	7	6	16	29
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	89	136	286	370
Axborot va aloqa	2	9	15	20
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6	11	22	31
Boshqa turlar	38	45	120	256

## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Shahar va tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining asosiy qismi Navoiy shahri (4 270 ta), Karmana (2 967 ta), Qiziltepa (2 428 ta), Xatirchi (2 350 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




**Shahar va tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Navoiy viloyati	226	141	85
Navoiy sh.	71	52	19
Zarafshon sh.	16	10	6
tumanlar:			
Konimex	7	5	2
Qiziltepa	15	10	5
Navbahor	10	8	2
Karmana	59	36	23
Nurota	22	11	11
Tomdi	7	6	1
Uchquduq	9	1	8
Xatirchi	10	2	8

*Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Navoiy shahrida 71 tani (umumiy miqdoridagi ulushi 31,4 %), Zarafshon shahrida 16 tani (7,1 %), Karmana 59 tani (26,1 %), Nurota 22 tani (9,7 %), Qiziltepa 15 tani (6,6 %), Xatirchi 10 tani (4,4 %), Uchquduq tumanlarida 9 tani (4,0 %) tashkil etadi.*


## Shahar va tumanlar kesimida har 1 000 oilaga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni<sup>1)</sup>

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



## Shahar va tumanlar kesimida har 1 000 aholiga to'g'ri keladigan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni<sup>2)</sup>

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



<sup>1)</sup> 2019- yil 1-yanvar holatiga ko'ra tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.

<sup>2)</sup> Doimiy aholi soni 2020- yil 1-aprel holatiga ko'ra shakllantirilgan.

**Shahar va tumanlar kesimida oilalar va faoliyat  
ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari  
soni, birlikda**

	Oilalar soni <sup>*)</sup>	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.06.2019- yil	01.06.2020- yil
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>261 472</b>	<b>11 280</b>	<b>16 605</b>
<b>Navoiy sh.</b>	<b>44 361</b>	<b>3 279</b>	<b>3 751</b>
<b>Zarafshon sh.</b>	<b>22 157</b>	<b>827</b>	<b>1 344</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Konimex</b>	<b>7 790</b>	<b>320</b>	<b>594</b>
<b>Qiziltepa</b>	<b>38 834</b>	<b>1 261</b>	<b>2 206</b>
<b>Navbahor</b>	<b>27 846</b>	<b>1 010</b>	<b>1 612</b>
<b>Karmana</b>	<b>37 996</b>	<b>1 992</b>	<b>2 727</b>
<b>Nurota</b>	<b>22 579</b>	<b>882</b>	<b>1 275</b>
<b>Tomdi</b>	<b>2 395</b>	<b>165</b>	<b>276</b>
<b>Uchquduq</b>	<b>10 918</b>	<b>447</b>	<b>758</b>
<b>Xatirchi</b>	<b>46 596</b>	<b>1 097</b>	<b>2 062</b>

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot displays the website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan (UZSTAT). The main header features the national emblem and the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI'. Below the header, there is a navigation menu with options like 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUROJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. A search bar is also present.

The main content area is divided into three columns:

- RASMIY STATISTIKA:** Includes links for 'E'ton qilish taqvimini', 'Metama'lumotlar', 'Makroko'rsatkichlar', 'Milliy hisoblar', 'Narx va indekslar', and 'Investitsiyalar'.
- FOYDALI MA'LUMOTLAR:** Includes links for 'Aholini ro'yxatga olish-2022', 'Harakatlar strategiyasi', 'Press-revizlar', 'Choraklik natijalar', 'Nashrlar – statistika haqida', and 'Uslubiy materiallar'.
- INTERAKTIV XIZMATLAR:** A dropdown menu is open, showing options: 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonalar pasporti'. The 'Korxonalar pasporti' option is selected, leading to a registration form.

The 'Korxonalar pasporti' form includes the following fields and elements:

- A field for 'STIR kodini kiriting' (Enter STIR code) with a search icon.
- A field for 'Rasmdagi kodni kiriting' (Enter code from the image) with a 'Qidiruv' (Search) button.
- A note: 'Kodni yengilash uchun rasimga bosing' (Click on the image to refresh the code).
- A sample image of a handwritten code: '99831k'.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) va Navoiy viloyati statistika boshqarmasining [www.navstat.uz](http://www.navstat.uz) rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi  
Tel.: 79 222-04-56**